

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish
natijalari haqidagi
HISOBOT**

I. Umumiy ma’lumot

2024-yil birinchi yarim yilligida aloqa kanallari orqali Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga **10 ta** (5 ta jismoniy shaxs murojaati, 5 ta HMQOning taqdimnomasi), Andijon viloyatiga **6 ta** (4 ta jismoniy shaxs murojaati, 2 ta HMQOning taqdimnomasi), Sirdaryo viloyatiga **11 ta** (2 ta jismoniy shaxs murojaati, 6 ta HMQOning taqdimnomasi, 3 ta yuridik shaxs xati (ko‘rsatmasi), Qashqadaryo viloyatiga **2 ta**, Namangan viloyatiga **7 ta**, Farg‘ona viloyatiga **4 ta**, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga **23 ta jami 63 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Ushbu murojaatlarning **11 tasi** Ishonch telefoni orqali, **1 tasi** maxsus bot orqali, **51 tasi** pochta orqali kelib tushgan.

Vazirlik tizimidagi qolgan tashkilotlarga korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Kelib tushgan **63 ta** murojaatlar belgilangan tartibda qabul qilinib o‘rganib chiqilgan. O‘rganish natijasiga ko‘ra, **40 ta** murojaatda keltirilgan vajlar o‘z tasdig‘ini topmagan, **11 ta** murojaat tegishliligi yuzasidan boshqa tashkilotlarga yuborilgan.

Murojaatlarni o‘rganish yuzasidan **15 ta** xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan, hamda **12 ta** holat yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga huquqiy baho berish uchun hujjatlar (xulosalar va tegishli materiallar) yuborilgan.

Korrupsiyaviy holatlar bo‘yicha **2 ta murojaat** (1 ta Vazirlikka kelib tushgan, 1 ta Tashqi migratsiya agentligiga kelib tushgan) bo‘yicha huquq tartibot idoralari tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan, shuningdek Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga firibgarlik holatlari bo‘yicha kelib tushgan **11 ta** murojaat yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlariga tegishliligi bo‘yicha yo‘naltirilgan.

Murojaatni o‘rganish yakuniga ko‘ra **7 ta “Hayfsan”** intizomiy jazosi, **3 ta** mehnat shartnomasini bekor qilish chorasi qo‘llanilgan.

III. Minimallashtirish choralari

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining korrupsiyaviy va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida ichki idoraviy hujjatlar yangilandi, tizim xodimlaridan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiyalar olindi hamda korrupsiyaga qo‘l urmaslik bo‘yicha kafolat xatlari olindi, o‘tkaziladigan hay‘at yig‘ilishlarida aniqlangan korrupsiyaviy holatlar va ularni oldini olish bo‘yicha Vazir boshchiligidagi muhokamalar o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi, vazirlik funksiya va vazifalari aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar va boshqa hukumat qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Vazirlik korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi yaratildi hamda tizim xodimlarini korrupsiyaga nisbatan murosasiz kurashish yuzasidan o‘qitish ishlari tashkil etildi.